

TEXNOLOGIYA FANIDA DIDAKTIK VA TARQATMA MATERIALLARNI TAYYORLASH

Ergasheva Fotima Dilshod qizi

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta’lim yo’nalishi talabasi,
Jizzax shahri, O’zbekiston
e-mail:ergasheva_fotima@gmail.com*

Annotatsiya: Didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri darslarning ko’rgazmali va tarqatmaliligini ta’minlashdan iboratdir. Ayniqsa, pedagogika, psixologiya fanlarini o’qitishda ko’rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish ta’lim oluvchilarning pedagogik yoki psixologik muammolarga oid bilim, ko’nikma va malakalarini oshirishda hamda ularga oid muammolarning yechimini topishda katta yordam beradi. Mazkur maqolada “Texnologiya fanida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash”, o’quv va didaktik materiallarni ishlatishda ularning mavjudligi hamda ahamiyati haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Texnologiya fani, ta’lim vositalari, didaktika, tarqatma material, ko’rgazmali qurol, taqdimot, didaktik material, axborot texnologiyalari.

Texnologiya darslarini onglilik va faollik tamoyili asosida o’qitish - o’quvchilarda ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo’llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o’quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutqi rivojlanadigan bo’ladi. O’qitishdagi onglilik tamoyili o’quvchilardagi ta’lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o’rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o’rtasidagi bog’lanishni tushungan holda o’zlashtirib olish, o’zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo’llay bilish kabi me’yorlarni anglatadi.

O’quvchilardagi mavjud bilim va ko’nikmalariga tayanib, obrazli taqqoslash usulidan foydalanib, har bir so’z va gapning tom ma’nosini ochib berish qoidasi. O’quvchilarning o’zaro o’qitish kuchidan unumli foydalanib, qo’yilgan savollarga jamoa bo’lib javob topish qoidasi. O’quv fanini hech qachon dars markaziga qo’ymay, dars markazida doimo o’quvchi turishini, uning shaxsi shakllanayotganini bilgan holda talabaga ta’limiy ta’sir o’tkazish qoidasi. O’qitish

jarayoni yanada muvaffaqiyatli o'tishi uchun, har bir tushuncha berilganidan keyin, uni bir necha misollar bilan mustahkamlash qoidasi. Hech qachon o'qituvchi aytganlarini qaytarish, birovlardan ko'chirish va aytib turish hollariga yo'l qo'ymaslik bilan, o'quvchi talabalarni mustaqil fikrlashga va harakat qilishga o'rgatish qoidasi. Berilayotgan bilimni har tomonlama tahlil qilib berish yo'li bilan bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish qoidasi. Texnologiya darslarida ilmiylik va tizimlilik tamoyili - o'quvchilarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi o'quvchida nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. O'quvchi o'rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

Ta'lim vositalari deb, o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan har qanday bilimlarni yetkazuvchi va axborot tashuvchi vositalarga aytiladi. Ta'lim vositalari uch turga bo'linib o'rganiladi: bosma, texnik va aniq o'quv vositalari. Bosma yoki chop etilgan o'quv materiallariga chop etilgan barcha o'quv va ko'rgazmali materiallar kiradi. Bosma materiallar o'z navbatida ikki turga bo'linib o'rganiladi, bular: matnli va tasvirli bosma materiallar. Masalan, o'quv yoki ishchi dasturlar, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatmali materiallar, ishchi varaqalari, nazorat (test) yoki topshiriq varaqalari, o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruza matnlari va boshqalar matnli vositalarga misol bo'ladi. Ular ma'lumotlar olish va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun xizmat qiladi. Tasvirli ko'rgazmali materiallarga slaydlar, diagrammalar, jadvallar, fotosuratlar, chizma-sxemalar, plakat kabilari misol bo'ladi. Ulardan umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun foydalaniladi. Texnika vositalarini ikki turga bo'lish mumkin: audiovizual, audiovirtual yoki yordamchi-jihozli. Audiovizual vositalarga kompyuter, proyektor, kodoskop, kinoapparat, kompakt disklar, o'quv televideniyesi, videomagnitofon, videofilm, audiokassetalar, Power Point materiallari, elektron darsliklar, multimedia vositalari kabilarni misol qilish mumkin. Audiovirtual

vositalarga internet, masofaviy ta’lim kabilar misol bo’ladi. Ushbu vositalar jarayonlar va ishlash mexanizmlari to’g’risida tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi. Yordamchi-jihozli vositalarga doskalar (oddiy bo’r doska, oq (flipchart) doska, magnit doskasi, «Pinbord» doskasi), parta, stul, stol kabilar kiradi. Ushbu vositalar tasvir va matnni yozish hamda saqlash uchun xizmat qiladi.

Didaktik material - bu o’quv qo’llanmalarining maxsus turi, asosan: xaritalar, jadvallar, matni, raqamlari yoki rasmlari bo’lgan kartochkalar to’plamlari, reaktivlar, o’simliklar, hayvonlar va boshqalar, shu jumladan mustaqil ravishda talabalarga tarqatiladigan axborot texnologiyalari asosida yaratilgan materiallar, sinfda va uyda ishlash yoki o’qituvchi tomonidan butun sinf (guruh) oldida namoyish etilgan.

Didaktik materialdan foydalanish o’quvchilarning o’quv faoliyatini faollashtirishga, o’quv vaqtini tejashga yordam beradi. Darslarda ko’rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanishdan asosiy maqsad ta’lim oluvchilarning mavzuni o’rganishlarida ularning diqqatini to’plash, darsga bo’lgan qiziqishlarini oshirish, o’zlariga bo’lgan ishonchni uyg’otish hamda ko’rgazmalilik va tarqatmalilik asosida ularning bilim, ko’nikma va malakalarini oshirishdan iborat. Shu o’rinda, muhtaram Prezidentimizning «Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq», degan fikrlari so’zimizning isboti bo’ladi. Quyida ko’rgazmali materiallar xususida ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan. Ko’rgazmali materiallar yordamida bir vaqtning o’zida muhokama qilinayotgan savol, axborotni ham eshitish, ham ko’rish orqali qabul qilish, shubhasiz, ta’lim oluvchilarning puxta bilim olishlariga yordam beradi. Bizga ma’lumki, ko’rgazmali materiallarning xilma-xil shakllari mavjud. Taraqqiyotning o’zi bir tomondan fanni chuqur o’zlashtirishni zarur qilib qo’ysa, ikkinchi tomondan turli-tuman yangi metodlar, ko’rgazmalilikni oshirish, texnika vositalaridan samarali foydalanish, ularni qo’llashni takomillashtirish orqali bilim olishni osonlashtirish, qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam beradi. Ko’rgazmalilik, odatda, xayolan ko’z o’ngiga keltirish bilan yoki namoyish qilish bilan ta’minlanadi.

Tarqatma materiallar - bu har qanday ko’rgazmali vositalar bo’lib, bu diagrammalar, chizmalar, jadvallar, fotosuratlar, taqdimot slaydlari va boshqalar

bo‘lishi mumkin. Tarqatma materiallarni tayyorlash va qo‘llashda quyidagi qoidalarga alohida etibor qaratish maqsadga muvofiq:

- matn shrifti 12 dan kichik bo‘lmasligi;
- sarlavhalarni bosh harf bilan yozishi;
- bir betda 80 tadan ko‘p belgi (harf, qavs, undov belgisi va hokazo) ishlatmaslik;
- matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo‘lishi;
- varaq dizayni e’tiborni oziga tortishi;
- tarqatish jarayonida me’yorni unutmaslik va shu kabilar.

Bularning hammasi dars jarayonida tarqatmali materiallardan to‘g‘ri, aniq, ravon va samarali foydalanishning zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shuningdek, dars jarayonida tarqatmali materiallardan foydalanishda o‘ziga xos ayrim kamchiliklar ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- tarqatmali materiallar tayyorlash o‘qituvchidan ko‘p kuch, vaqt, yuksak mahorat va tinimsiz mehnatni talab qiladi;
- dars davomida bir kishiga kamida bitta tarqatmali material bo‘lishi kerak, bu qo‘shimcha katta moddiy xarajatni talab etadi;
- tarqatmali materiallar asosida darslarda o‘zaro muhokama cho‘zilib ketishi mumkin.

Bu mavzuning boshqa qismlariga ahamiyat berilib, o‘tilayotgan mavzuga e’tibor pasayishiga olib keladi; Tarqatmali materiallarda berilayotgan savollarga ko‘p vaqt ajratilib, yangi mavzu e’tibordan chetda qolib ketishi mumkin. Yuqoridagi kamchiliklarga qaramay, amaliyotdan bizga ma’lumki, dars davomida tarqatmali materiallardan foydalanishning afzallik jihatlari ustun hisoblanadi. Mavzuni o‘rganishda tarqatmali materiallar ta’lim oluvchilarga yozma shaklda berilib, og‘zaki yoki yozma javob olish orqali amalga oshiriladi (yozma yoki og‘zaki javob olishni o‘qituvchining o‘zi tanlaydi).

Ko‘rgazmali materiallar: nomoddiy, texnik va moddiy turlarga bo‘linadi .

Nomoddiy ko‘rgazmali materiallar deyilganda, dars jarayonida so‘z bilan o‘qituvchi tomonidan ma’lumotlarni yodga tushirish, ta’lim oluvchilarning xayolida gavdalantirish mumkin bo‘lgan ichki, xayoliy tushunchalar, ya’ni adabiyot, san’at asarlari, badiiy film, badiiy asar qahramonlari, hayotda yuz beradigan turli voqea, hodisa va turli vaziyatlarni tasavvur qilish orqali hosil qilish tushuniladi. Darsni boshlaganda o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni ta’lim oluvchilarning

yodiga tushiradi. O’qituvchi yangi mavzuni boshlar ekan, ta’lim oluvchilar diqqatini unga jalb qilish, fikrini yo’naltirish uchun adabiyot, san’at asarlari yoki hayotda yuz bergan voqeani gapirib berishi mumkin. Bu yangi mavzuni o’rganishga ta’lim oluvchilar ruhi va kayfiyatini tayyorlaydi. Masalan, «Texnologiya» fanidan «Yog’och materiallariga ishlov berish» mavzusini boshlashdan avval sinfga quyidagicha murojaat qilish mumkin: «Yog’och nima?», «yog’och nimalardan olinadi?» yoki «Yog’ochdan nimalar yasaladi?» deyilganda nimani tushunish mumkin? Ushbu savollarga ta’lim oluvchilar o’zlari oldindan bilgan, o’qigan, eshitgan ma’lumotlarga tayanib, ko’z oldilariga keltirib, o’z fikr va mulohazalarini bildiradilar. Texnik ko’rgazmali materiallar deyilganda, ta’lim vositalarini tushunish mumkin. Chunki pedagogikada ta’lim vositalari ko’rgazmali material sifatida qaraladi. Bugungi kunda, uzluksiz ta’lim tizimini texnika vositalarisiz tasavvur qilib bo’lmaydi.

Barcha ko’rgazmali qurollarga va ulardan o’quv jarayonida foydalanishga ma’lum talablar qo’yiladi:

- 1) haqiqiy ob’ekt yoki hodisaga eng aniq yozishmalar;
- 2) o’qituvchining vizualizatsiyani joriy etish maqsadi, vaqti va joyi to’g’risida aniq xabardorligi;
- 3) ko’rgazmali qurollarning estetik dizayni;
- 4) ob’ekt yoki uning tasviri oldidagi ta’lim vazifasiga muvofiqligi;
- 5) bitta darsda (darsda) foydalanishda o’lchov;
- 6) bitta darsda bir nechta ko’rgazmali qurollardan foydalanganda, ular kerakli paytgacha, idrok etish uchun yopiq holda taqdim etilishi kerak;
- 7) o’quvchilar o’rtasida yonma birlashmalar yaratmaslik uchun vizual ob’ektda ortiqcha narsa bo’lmasligi kerak;
- 8) o’quvchilarning yoshi va rivojlanish darajasi va tayyorgarligini hisobga olish.
- 9) Tabiiy ob’ektlar yoki ularning o’rnini bosadigan narsalar o’quvchilarning mavzuga oid aniq taassurotlari va g’oyalarini yaratadi.

Texnologiya fanida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash – bu o’quv jarayonining samaradorligini oshirish, o’quvchilarda mustahkam bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishda muhim rol o’ynaydigan muhim bosqichlardan biridir. Zamonaviy ta’lim jarayonida o’qituvchining asosiy vazifalaridan biri bu – murakkab mavzularni o’quvchilar uchun sodda, tushunarli va qiziqarli tarzda

yetkazishdir. Bunda didaktik materiallar (slaydlar, vizual vositalar, videodarslar, interaktiv mashg’ulotlar) va tarqatma materiallar (ishchi varaqalar, testlar, chizmalar, amaliy topshiriqlar) katta yordam beradi.

Texnologiya fanining o’ziga xosligi – nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko’nikmalarni ham egallash zarurati bo’lib, bu esa o’quvchini faol ishtirok etishga undaydigan o’quv vositalarini talab qiladi. Didaktik materiallar orqali o’quvchilar dars jarayonini yaxshi tushunib olishlari, mavzuni chuqurroq o’zlashtirishlari va uni amalda qo’llash ko’nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. Ayniqsa, interaktiv darslar, loyihaviy ishlanmalar, rasmlar, diagrammalar va jadvallar kabi materiallar texnologiya fanida katta ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, texnologiya fanida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlashda ularning mazmuni, shakli, ko’rinishi va o’quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi, qiziqishlari hamda real hayotiy faoliyatga yaqinligi muhim omillar hisoblanadi. Ushbu materiallar darsni ko’rgazmali, jonli, interaktiv va samarali tashkil qilishga xizmat qiladi. Shu bois, o’qituvchi har bir dars uchun mazmunan boy va metodik jihatdan puxta o’ylangan didaktik hamda tarqatma materiallarni tayyorlashi zarur. Xulosa qilib aytganda, texnologiya fanida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash – bu faqatgina ta’lim vositasi emas, balki o’quvchining mustaqil fikrlashini, ijodkorligini, amaliy ko’nikmalarini shakllantiruvchi muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish orqali o’qituvchi nafaqat bilim beradi, balki o’quvchini hayotga tayyorlaydi, mehnatsevar, izlanuvchan, o’z ishining ustasi bo’lgan shaxsni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. va boshqalar. Texnologiya fanini o’qitish metodikasi, Toshkent: O’qituvchi nashriyoti, 2018.
2. Ibragimov I.A. Didaktika asoslari, Toshkent: Fan, 2016.
3. To’raxo’jayev N. Pedagogik texnologiyalar, Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
4. Shavkatov Sh. Texnologiya fanidan amaliy mashg’ulotlar, Qarshi: Nasaf, 2019.
5. Xodjayev A., Xodjayeva D. Kasb-hunar ta’limi: metodika va tashkil etish, Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.